

O'ZBEK TILI MAQOMINI MUSTAHKAMLASHDA HUQUQIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI

Mirzayeva Zuxra-bonu Turakulovna

*Toshkent Davlat Agrar Universitet Agroiqtisodiyot logistika va xizmatlar
fakulteti „Yurisprudensiya“ yo'nalishi IIIkurs talabasi*
[Mobil: +998880720311.mirzayevazuxrabonu@gmail.com]

Ilmiy rahbar: Umurzakova Nargisaxon Muxtarovna

*Toshkent Davlat Agrar
Universitet „Huquqshunoslik“ kafedrasida dotsent*
[Mobil: +998990129077.

E-mail :nargisau71@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek tili davlat tili sifatida jamiyat hayotida tutgan o'rni, mavjud huquqiy asoslar va ularni yanada takomillashtirish zarurati yoritiladi hamda o'zbek tili to'g'risidagi qonunlarda uchrayotgan amaliy muammolarni tahlil qilinib, til siyosatini zamon talablariga moslashtirish bo'yicha huquqiy takliflar ilgari suriladi.*

Kalit so'zlar: *davlat tili, huquqiy mexanizm, qonun, til siyosati, milliy o'zlik, takomillashtirish, huquqiy islohotlar.*

Аннотация *В данной статье рассматривается роль узбекского языка как государственного в жизни общества, анализируются существующие правовые основы и необходимость их дальнейшего совершенствования. Также исследуются практические проблемы, возникающие в применении законов о государственном языке, и выдвигаются правовые предложения по приведению языковой политики в соответствие с требованиями времени.*

Ключевые слова: *государственный язык, правовой механизм, закон, языковая политика, национальная идентичность, совершенствование, правовые реформы.*

Annotation : *This article explores the role of the Uzbek language as the state language in social life, analyzes the existing legal framework, and emphasizes the need for its further improvement. It also examines practical issues in the implementation of the laws on the state language and proposes legal measures to align language policy with modern requirements.*

Keywords: *state language, legal mechanism, law, language policy, national identity, improvement, legal reforms.*

Til — millatning ruhi, uning o'zligini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. O'zbek tili esa, o'zbek xalqining tarixiy xotirasi, ma'naviy boyligi va madaniy merosini ifoda etuvchi ulkan qadriyatdir. Xalqimizning ko'p asrlik madaniy, ilm-

ma'rifat va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo'lgan o'zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillaridan biridir.

1989-yil 21-oktabrda "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi mustaqillik sari dadil qadam bo'ldi. Ushbu hujjat o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini huquqiy jihatdan mustahkamlab berdi. Biroq, oradan o'tgan yillar davomida ijtimoiy hayot, raqamli texnologiyalar, ta'lim va boshqaruv tizimida yuz bergan o'zgarishlar mazkur qonun va unga aloqador huquqiy mexanizmlarni zamon talablari darajasida yangilash zaruratini tug'dirdi. Istiqlol yillarida ona tilimiz tom ma'noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi. Shu bilan birgalikda yurtimizda „Milliy tiklanishdan- milliy yuksalish sari“ degan bosh tamoyil ham taraqqiyotimizning yangi, yanada yuksak bosqichga ko'tarilishga asosiy shior sifatida qo'llanilishi boshlandi. Bu esa o'zbek tilining, o'zbeklarning ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy sohalarida ulkan yutuqlarga erishib, xalqaro minbalarda ularning nomlari baralla yangrashi, xorijiy mamalakatlarda millatimizni, 'o'zbek xalqini o'rganishi bo'yicha ularda qiziqishini yanada kuchaytirishga sabab bo'lib kelmoqda. Bu juda katta natija, bu faxr, bu millatimizga e'tibor demakdir. Buning misolini davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevni ilk bor 2020- yil 23- sentabrda BMT Bosh assambleyasining 75-sessiyasida sof o'zbek tili -navoiy tilida so'zlagan nutqlari misolida ochiq oydin ko'rishimiz mumkin. Bu nutqning tarixiy va barchani lol qoldirgan jihati shundaki, 2020 -yilga qadar BMT Bosh assambleyasida biror marta o'zbek tilida nutq namoyon etilmagan, ushbu tarixiy jarayon millatimizni jahon miqyiqoysoida ham o'z qadriyatlari, milliy tili, yangilanish siyosatini ko'rsatib berdi. Ushbu yig'ilishda mintaqaviy hamkorlik, Markaziy Osiyo tinchligi va barqarorligi, inson huquqlarini himoya qilish, ekologik muammolar, jumladan Orol fojiasini bartaraf etish hamda, BMT bilan hamkorlikni kuchaytirish borasida asosiy g'oyalar ilgari surildi.

Davlatimizda davlat tili maqomini belgilovchi huquqiy asoslar mavjud bo'lib, ularda asosiy normalar keltirilgan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasining davlat tili – o'zbek tilidir." deb belgilangan. Shuningdek, 1989-yilda qabul qilingan "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda til siyosatiga oid davlat dasturlari ushbu sohaga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu hujjatlar orqali tilni rivojlantirishning tashkiliy, ma'naviy va ma'rifiy jihatlari belgilab berilgan bo'lsa-da, amaliy mexanizmlar hali yetarlicha kuchli emas. Buni quyidagi muammolar sifatida tahlil etishimiz mumkin.

1. Qonun normalarining eskirganligi eskiligi. "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun 1989-yilda qabul qilingan bo'lib, unda zamonaviy raqamli soha, internet, sun'iy intellekt yoki ijtimoiy tarmoqlardagi til madaniyatini tartibga soluvchi me'yorlar yo'q.

2. Nazorat mexanizmlarining sustligi. Qonun ijrosini nazorat qiluvchi mustaqil organ yoki aniq javobgarlik chorasi belgilanmagan. Shu sababli ayrim davlat idoralarida hujjatlar hanuz rus tilida yuritiladi.

3. Terminologik muvofiqlikning yo'qligi. Atamalarni ishlab chiqish va yagona shaklda qo'llash mexanizmi qonun darajasida belgilab qo'yilmagan. Natijada rasmiy hujjatlarda bir xil tushuncha turlicha ifodalanadi bu esa chalkashliklarga olib keladi.

4. Til siyosatining strategik yo'nalishlari aniqlanmagan. Qonunda o'zbek tilining xalqaro miqyosda qo'llanishi, ilm-fan va texnologiya sohalarida rivojlanish strategiyasi to'liq aks etmagan. Ushbu muammolarning barhcasi jamiyatimizda millat ruhi bo'lmish adabiy tilini saqlanib qolishi va uni har bir davlat organlarida qo'llanilishi, har bir fuqaroning o'zligini – o'zbek ekanligini anglashga to'siq bo'ladi. Ushbu qonun va qonunosti hujjatlarga o'zgartirish kirtisih bo'yicha quyidagilarni taklif etaman .

1. Qonun normalarini zamonaviy tahrirda qayta ishlab chiqish. Raqamli soha, sun'iy intellekt, axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalarida o'zbek tilining to'g'ri qo'llanishini nazarda tutuvchi yangi moddalarni kiritish .

2. Davlat tili agentligini tashkil etish. Ushbu idora til siyosatini muvofiqlashtiruvchi, qonun ijrosini nazorat qiluvchi hamda terminologik ishlarni olib boruvchi vakolatli organ sifatida hududiy boshqarmalar va bo'limlarda o'z faoliyatlarini amalga oshirish.

3. Til madaniyatiga rioya etmaslik hamda davlat tilida ish yurtish qoidalariga amal qilmaslik uchun javobgarlikni muqarrar etib belgilash. Mansabdor shaxslarning davlat tili me'yorlariga amal qilmasligi uchun, ma'muriy javobgarlik choralari qat'iy ravishda qonun bilan mustahkamlash zarur.

4. O'zbek tilining raqamli infratuzilmasini yaratish. Dasturlar, mobil ilovalar va rasmiy saytlarning o'zbekcha nom ostida ishlashini ta'minlovchi normativ hujjatlar ishlab chiqilishi lozim.

5. Tilni xalqaro miqyosda targ'ib qilish. Chet eldagi elchixonalar, universitetlar va madaniyat markazlarida "O'zbek tili markazlari"ni tashkil etish orqali til nufuzini oshirish kerak.

6. Ta'lim tizimida til o'qitish sifatini oshirish va tilni yanada boyitish va erkin tarzda so'zlay olish borasida notiqlik kurslarini tashkil etish zarurdir .

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, o'zbek tili – millatning yuragi, davlatning sha'nidir. Uning huquqiy asoslari mustahkam, bo'lishi amaliy mexanizmlari qat'iy bo'lishi shart va zarurdir . "Davlat tili to'g'risida"gi qonunni yangicha tahrirda qabul qilish, nazorat tizimini yo'lga qo'yish va raqamli davrga mos huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish orqaligina tilimizning haqiqiy mavqei ta'minlanadi. Tilni asrash – bu faqat filologlarning emas, har bir fuqaroning burchidir. O'zbek tili qonunda emas, xalq qalbida yashashi uchun uni har sohada, har yurtida, har yurakda ulug'lash zarur. Har bir o'zini o'zbekman, shu yurt farzandiman degan inson buyuk jadidlarimizdan biri

Abdulla Avloniy aytgan „Til yo’qolsa -millat ham yo’qoladi. Til yashasa -millat yashaydi” shioriga amal qilgan holda o’zbek tilimizni yanada shuhrat topsishi va uni butun dunyoda tanitish yo’lida shahdamlik bilan amallar orqali isbotlashi zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023.
2. “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili to‘g‘risida”gi Qonun, 1989-yil 21-oktabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.
4. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
5. Normurodova D. “Til siyosati va milliy o‘zlik”. – Toshkent